

YANGI O'ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ

Namangan viloyati Pop tumanidagi

73- sonli maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Azimova Ma'mura Dilshodjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ygan Yangi O'zbekiston, yangidan yangi islohatlar va islohatlarning natijasi o'laroq Taraqqiyot strategiyasining 7 ta ustuvor yo'nalishi haqida keng yoritib berilgan

Kalit so'zlar. Yangi O'zbekiston, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi, PF, inson qadri, 7 ta ustuvor yo'nalish.

Taraqqiyotga bosqichma-bosqich yurtimiz O'zbekistonda, har sohada tubdan islohatlar amalga oshirilmoda. Bu o'zgarish va islohatlar albatta inson qadrini ulug'lash, uni jamiyatda erkin va farovon yashashini, huquqlaridan mustaqil foydalana olishi, hamda rivojlanayotga mamlakatimizda o'z o'rni va fikr erkinligiga ega bo'lishini qamrab olgan. Inson qadri har narsadan ulug'dir. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday deydilar: " Inson qadri – ulug'. U ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotidan rozi va mamnun bo'lib yashashi kerak. " Obod qishloq" va " Obod mahalla" dasturlarini amalga oshirish islohatlarimiz ichida eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Chunki biz xalqimiz oldida muammolarini hal etish, turmush sharoiti va hayoti sifatini yaxshilashga burchlimiz".

Ushbu jonkuyar so'zlar natijasi o'laroq Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan 2017-2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" tasdiqlangani o'zbek davlat boshqaruvi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur farmoyishda nazarda tutilgan tadbirlarni mukammal amalga oshirilishini nazorat qilish maqsadida " Taraqqiyot strategiyasi" markazi tashkil etildi. Ushbu

ondan boshlab Harakatlar strategiyasidan Taraqqiyot strategiyasi tomon qadam tashlay boshlandi.

“Taraqqiyot strategiyasi” markazi Harakatlar strategiyasidagi islohatlarning mazmun mohiyati, ahamiyati va natijalarini izchil muhokama qilish, davlat organlari va xalq o‘rtasidagi ochiq muloqotni ya tashkillash, jamoatchilik nazoratini samarali tashkil etishda zamonaviy markaz vazifasini o‘taydi.

Olib borilayotgan izlanish va tajribalar asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasi” ishlab chiqildi. Farmon loyihasi bo‘yicha 16,7 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Ularni har tomonlama ko‘rib chiqish yakuniga ko‘ra, hujjatga qariyb 100 ta konseptual hamda 200 dan ortiq aniqlashtiruvchi tahririy o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.

Farmonda O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha 100 ta maqsadlarga erishishga qaratilgan va 2022- yilda bajarilishi lozim bo‘lgan 398 ta chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Rejalashtirilayotgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga 2022-yilda umumiy qiymati 55 trillion so‘m va 11,7 milliard dollar mablag‘lar ajratilishi rejalashtirilgan.

Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasi 7 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat bo‘lib, har bir yo‘nalish quyidagicha nomlangan:

- 1-yo‘nalish. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- 2-yo‘nalish. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- 3-yo‘nalish. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, va yuqori o‘shish sur‘atlarini taminlash;
- 4-yo‘nalish. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- 5-yo‘nalish. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;

6-yoʻnalish. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;

7-yoʻnalish. Mamlakatimizni xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish;

Ushbu farmon 2022-yildan kuchga kirib amalda koʻplab ishlar amalga oshirildi. Bunga misol tariqasida “Hokim yordamchisi” lavozimi joriy etilgani xalqni koʻplab muammolari hal etilishiga sabab boʻldi. Taraqqiyot strategiyasi har bir ustuvor yoʻnalishi nomlanishidan boshlab, mazmun mohiyatigacha inson qadrini ulugʻlashga yoʻnaltirilgan. Albatta bu qonun va farmoyishlar oʻz oʻrnida qolmasligi, amalda oʻz aksini topishi zarur. Shundagina Yangi Oʻzbekiston rivojlanadi va koʻzlangan maqsadga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasi" Prezident farmoni.
2. <https://strategy.uz> internet sayti.
3. MMirziyoyev. Sh. M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: O'zbekiston, 2017.